

## BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

## TAHIR HAY'ATI

Baxtiyor SAIDOV  
G'ayrat SHOUMAROV  
Rustem REIMOV  
Risboy JO'RAYEV  
Shaxnoza XALILOVA  
Boris BLYAXER  
Iroda ABDULLAYEVA  
Ayubxon RADJIYEV  
Sharibboy ERGASHEV  
Feruz QODIROVA

### Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

### Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

### Kompyuterda sahifalovchi va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarining uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

### Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi "MAKTAB VA HAYOT" M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "MAKTAB VA HAYOT" dan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan chiqa boshlagan.

### MANZIL:

100095, Toshkent sh.,  
Olmazor t., Ziyoyev ko'chasi, 6A uy.  
Tel: (0371) 246-21-02

E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

**OBUNA INDEKSI - 1019**

## MUNDARIJA

<b>I.A.TESHABOEV.</b> O'zbekiston xalq ta'limida psixologik xizmatning tizim sifatidagi zarurati .....	2
<b>YU.G'. MAHMUDOV, A.H. ESHQORAEV.</b> Hissiy intellekt – YEQ, samarador rahbar uchun asosiy ko'rsatkich.....	4
<b>M.MIRQOSIMOVA.</b> O'quvchilarda sanogen fikrlashni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	6
<b>I.Q.SAYFULLAYEVA.</b> Bo'lajak logopedlarda kasbiy kompetensiyalar shakllanganligini baholash komponentlari va usullari .....	8
<b>M.U.XAMIDOVA.</b> Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar oilasini korreksion-pedagogik yordamga jalb etish texnologiyalari.....	10
<b>YU.G'. MAHMUDOV, A.H. ESHQORAEV.</b> Umumta'lim muassasining jamoatchilik bilan aloqalari maktab imijini shakllantirish omili sifatida.....	12
<b>M.ERGASHEVA.</b> O'qish savodxonligini baholash orqali ta'limdagi muammolarni aniqlash .....	14
<b>SH.MATUPAYEVA.</b> Ta'lim klasteri sharoiti - inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning innovatsion omili.....	17
<b>J.N.YAKUBOV.</b> Cheksiz aql mashqi – shaxmat: kecha, bugun, ertaga.....	18
<b>O.M.ZARIPOV, M.R.XAKIMOV.</b> Axborotning xavf tug'dirish xususiyati va undan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....	21
<b>B.E.TOSHMATOV.</b> Psixologik xizmatda suhbat olib borish texnologiyasi .....	23
<b>B.Q.SUBANOVA.</b> Kadrlarni inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashda zamonaviy pedagogik vositalar, metodlar va ta'limni tashkil etish .....	25
<b>З.П.КЛЫЧЕВА.</b> Личностное формирование учащихся начальных классов посредством тренинговых занятий .....	28
<b>S.J.ACHILOVA.</b> Dizartriya nutq kamchiligiga ega bolalar nutqi ustida ishlashning samarali usullari va innovatsion texnologiyalarning korreksion ta'limda o'rni.....	30
<b>M.Э.ТАХИРОВА.</b> Эффективные пути развития речи у детей дошкольного возраста на занятиях логоритмики .....	32
<b>G.BAYTILEUOVA.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiya jarayonining nazariy asoslari .....	34
<b>G.X.JUMASHEVA, B.ALPIBAYEVA.</b> Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining mazmun va mohiyati.....	36
<b>G.R.YUSUPOVA.</b> O'quvchilarda sog'lom tafakkurni rivojlantirish omillari va sog'lom muhitni shakllantiruvchi pedagogik texnologiyalar .....	38
<b>M.N.QO'LDASHEVA.</b> Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy malakalarini rivojlantirish.....	40
<b>M.G'.RAMAZONOVA.</b> G'arb va sharq allomalari merosida san'at va tarbiya uyg'unligining asoslanishi.....	42
<b>N.X.VOXIDOVA.</b> Umumta'lim maktablarida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish .....	44
<b>B.A.AMIRULLAYEVA.</b> Tabiiy fanlar (science) o'qituvchilarining o'quv-metodik tayyorgarligini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida .....	46



# TA'LIM KLASTERI SHAROITI - INKLYUZIV TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION OMILI

**Sh.Matupayeva, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi**

В статье рассматривается проблема повышения эффективности инклюзивного образования, позволяющего обеспечить личностное развитие и самореализацию детей с ограниченными возможностями здоровья.

**Ключевые слова и понятия:** инклюзия, образовательный кластер, формы взаимодействия с родителями, инклюзивное образование.

The article deals with the problem of increasing the effectiveness of inclusive education, which allows for the personal development and self-realization of children with disabilities.

**Keywords and concepts:** inclusion, educational cluster, forms of interaction with parents, inclusive education.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ta'limda alohida ehtiyojlari bor bolalar bilan ishlashga tashkiliy-metodik, psixologik jihatdan tayyorlashning nazariy-pedagogik jihatlarini aniqlash tirish orqali inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta'lim jarayoniga o'qituvchilarni tayyorlash muammosi tashkilotlar va tizimlarga sinergetik ta'sirga asoslanadi.

Ta'lim klasteri o'zaro manfaatli hamkorlikning ekvivalenti sifatida tavsiflanuvchi, biroq o'zining samaradorligi bo'yicha xususiy konsepsiyalariga ega omil sifatida tadqiqotimizning asosiy ilmiy yo'nalishi hisoblandi. Ma'lumki, klaster tushunchasi dastlab iqtisodiyot sohasida joriy qilingan. Iqtisodiyotdagi klaster nazariyasining asoschisi M.Porter bo'lib, u klasterini "...o'zaro raqobatbardoshlikning o'sishiga sabab bo'ladigan bir-biriga bevosita bog'liq sohalarning jamlanishi"- deb tushuntirdi. L.Bespalova ta'lim klasterini: "Ixtiyoriy komponentlar qatorida o'zining to'liq funksional ishchanlik qobiliyatini saqlaydigan bir nechta bo'laklardan iborat bo'lgan tuzilma", - sifatida ta'riflaydi.

O'zbekistonda ta'lim klasteri tushunchasini G.I.Muxamedov amaliyotga joriy etgan. Bugungi kunda bu innovatsion yondashuv bo'yicha o'zining ilmiy maktabini yaratgan[1].

O'zbekistonlik olim S.Toshtemirova "ta'lim klasteri"ga quyidagicha ta'rif bergan: "Ta'lim klasteri ta'lim turlarining gorizont va vertikal holatdagi o'zaro bog'liq tarkibiy bo'limlardan, o'ziga xos integral belgilardan iborat, jamiyat ehtiyojidagi ijtimoiy buyurtmani maqsad umumiyli va manfaat xususiyli tamoyili asosida ta'minlovchi, ilmiy-texnologik infrastuktura hamda inson resurslari integratsiyalashuvini, tezkor muloqot tizimini taqdim qiluvchi, turli raqobat muhitini shakllantiruvchi, innovatsion loyihalarni samarali omalashtiruvchi tuzilma". Olima klaster faoliyatini joriy etishning quyidagi bosqichlarini ajratadi: 1) klaster tarkibini aniqlash; 2) ta'lim klasterining ichki qobig'ida zarur harakatlarni amalga oshirish; 3) hamkorlikning me'yoriy tartibi bo'yicha ishlarni tashkil etish. Sanab o'tilgan bosqichlarda o'zaro bir-biriga bog'liq hamda to'ldiruvchi vazifalarning amalga oshirishi natijasida ta'lim samaradorligiga erishish kafolatlanishi asoslab berilgan [3].

Ta'lim klasterining inklyuziyaga erishish hamda uni samarali amalga oshirilishiga qanday aloqasi bor? -degan savolga amaliy yechim sifatida quyidagi izohlarni keltirish mumkin:

1. Inklyuziv ta'lim ishtirokchilarining roli va vazifalari aniq va maqsadga yo'nalgan holda belgilanadi.

2. O'quvchilarning akademik faoliyat traektoriyasi ta'lim muassasasi negizida amalga oshirilsa, ijtimoiy moslashuv traektoriyasi "uydan-maktabgacha" xarita negizida tashkil etiladi. Bu o'z o'zidan mahalla va makro muhitning mazkur ta'lim turiga bevosita dahldorligini tavsiflaydi.

3. Nogironlikka nisbatan insonparvarlik munosabati yakka holda yoki oilaning o'zida yoki faqat mahalla ishtirokida va yoki manfaatdor tashkilotning sa'y-harakatlarining o'zi bilangina paydo bo'lmaydi. Bu munosabat jamiyat ishtirokini taqozo etadi. Shuning uchun bizning tadqiqotimizda belgilangan vazifalar "Inklyuziv ta'limdan-inklyuziv jamiyatga"-g'oyasi doirasida ta'lim klasteriga murojaat qilishga undadi.

4. Oilalarda imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'limiy muhitni yaratishga ota-onalarning pedagogik savodxonligi yetishmaydi. Oilalarga bu masalada yordamni tashkil etish esa, faqat ta'lim muassasasining zimmasidagi vazifa emas, albatta, chunki har bir oilaning o'ziga xos ijtimoiy mavqeyi, ichki tartib qoidalari mavjud bo'lib, ularga xos yo'lni topish va qo'llashda mahalla hamda boshqa ijtimoiy institutlar ishtiroki talab etiladi. Bu harakatlarni umummaqsadga yo'naltirishda esa, ta'lim klasteri tamoyillariga ehtiyoj seziladi.

5. Inklyuziv ta'lim jarayonida e'tibor faqat imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan yo'nalsa, unda bu ta'lim turi o'zining ochiqligi, hammabopligi va albatta, insonparvarligini yo'qotadi. Demak, inklyuziv ta'limda e'tibor hamma o'quvchiga birdek qulay muhitni yaratishga qaratiladi. Bu vaziyat ishtirokchilarning faoliyatini ta'lim turi maqsadidan kelib chiqqan holda muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi. Aynan bu masalaning hal etilishida ham ta'lim klasteri pedagogik mexanizm sifatida maydonga chiqadi.

Ta'lim klasteri muhitida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini imkoniyati cheklangan bolalar bilan inklyuziya sharoitida ishlashga tayyorlash uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish mazmuniga tegishli vazifalarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot doirasida inklyuziv ta'limga o'qituvchilarni tayyorlash vazifalari klaster tuzilmasi faoliyat yuritadigan tegishli hududda yaratilgan sharoitlarni va amaliyotda aniqlangan qiyinchiliklarni hisobga olgan holda pedagogik tajriba-sinov ishida qo'llaniluvchi texnologiyalarni aprobatiya qilish va joriy qilishning tarkibiy-dinamik modelini ishlab chiqish bilan bog'liq ravishda belgilandi.

Pedagogik tajribalarda modellash tirish metodidan foydalanildi. Bunda klaster su byektlar faoliyati sinergiyasini ta'minlashda ichki va tashqi omillar inobatga olindi. PTIK sha-



roitida inklyuziv ta'limga o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini modellashtirish ko'p elementli va ko'p tarkibli bloklardan tashkil topdi.

Bizning tadqiqotimizda o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayoni obyekt sifatida tanlandi. Xalq ta'limi tizimida pedagog kadrlarning malakasini uzluksiz oshirish tartibi mavjud. Bunga ko'ra o'qituvchilar o'zlaridagi metodik bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida malaka oshirish kursi yo'nalishini tanlaydilar. Bundan tashqari o'qituvchilarni pedagogik-dagnostikasi ham amalga oshiriladi. Bu jarayonda maxsus anketalar va kuzatish choralari qo'llaniladi. Ta'lim klasteri tuzilmasida xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish xududiy markazlari alohida blok sifatida belgilandi. Ma'lumki, inklyuziv ta'lim yoki maxsus ta'lim majburiy hisoblanmaydi. Har bir alohida holatda inklyuziv ta'lim ota-onalarning xohishi bilan va bolaning qiziqishlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib individual adaptatsiyalashtirilgan ta'lim dasturi bo'yicha tashkil qilinadi. Zero, inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiylashuvi uchun qulay sharoitlar yaratish hisoblanadi. Rivojlanishida o'ziga xosliklar bo'lgan bolalar ko'pincha tengqurlari bilan normal muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar, ularning ijtimoiy aloqalari asosan ota-onalari va tibbiyot xodimlari bilan cheklangan bo'ladi. Ota-onalar bunday bolaga maksimal darajada g'amxo'rlik va parvarish qilishga intilib, yolg'iz o'zlari bolaning o'qishi va ijtimoiylashuvi uchun zarur sharoitlarni yaratishga qodir bo'lmaydilar. Ushbu yo'nalishni amalga joriy qilish davomida faqatgina alohida bolalarga va ularning ota-onalarigagina yordam bilan cheklanish kerak emas. Sog'lom bolalarning ham tarbiyasiga e'tibor

qaratish lozim. Ularda o'zaro yordam va boshqa odamlar bilan murosa qilish ko'nikmalarini shakllantirish choralarni ko'rish maqsadga muvofiqdir. Bu inklyuziv ta'limni tashkil etishda ancha ahamiyatli jihat hisoblanadi.

Bu orqali maktab, mahalla, tashkilotlar jamoalari o'rtasida inklyuziv madaniyat tarkib topishiga erishiladi.

Biz faqatgina inklyuziv ta'limga o'qituvchilarni tayyorlashning murakkabliklari va o'ziga xosliklarini tasvirlab berdik. Shunga qaramay, o'qituvchilarni bu ta'limga tayyorlash muhim va ijtimoiy zaruratdir.

Inklyuziv ta'lim tizimini samarali joriy qilish uchun mutaxassislar: pedagoglar, psixologlar, shifokorlar, defektologlar, ijtimoiy xodimlarning muvofiqlashtirilgan faoliyati zarurligini ham ta'kidlab o'tdik.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. Toshkent sh., 2020 yil 23 sentyabr, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

2. Muhamedov G.I. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija // "Xalq so'zi" 15 fevral 2019 yil. <http://xs.uz/uzkr/post>.

3. Muxamedov G.I., Xo'jamqulov U.N., Toshtemirova S.A. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri / monografiya -T.: Universitet, 2020. 280 b.;

4. S.Toshtemirova. Klaster yondashuvi asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy ilmiy darajasini olish uchun yozilgan. Dissertasiya.

## CHEKSIZ AQL MASHQI – SHAXMAT: KECHA, BUGUN, ERTAGA

**J.N.Yakubov, Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi direktor o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent**

Данная статья посвящена истории игры в шахматы и ее развитию в Узбекистане.

**Ключевые слова и понятия:** история шахмат, развитие, шатрандж, чатуранга.

This article is devoted to the history of the game of chess and its development in Uzbekistan.

**Key words and concepts:** history of chess, development, shatranj, chaturanga.

O'zbekiston Respublikasida yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish, kelajak avlodning porloq istiqbolini ta'minlash va farzandlarimizni mustaqil Vatanimizning chinakam suyanchi va tayanchi bo'la oladigan komil insonlar qilib tarbiyalash masalasi eng dolzarb vazifalardan biri etib belgilangan. Qo'yilgan ustuvor vazifalarni bajarishda qadimiy o'yinlardan biri bo'lgan shaxmatning o'rni beqiyos kattadir.

Shaxmat birinchi marta qayerda paydo bo'lgan? Jahonning ko'plab olimlari bu masalani hal qilish uchun bir necha asrlar davomida urinib keldilar. Shaxmat donalari orasida Hindistonga xos fillarning bo'lishi, qadimiy qo'lyozmalarda "radja" (shoh) "anga" ("qo'r") kabi hindcha so'zlarning qo'llanilishi hamda hozirgacha saqlanib kelgan ko'pgina afsonalar bu o'yin-tarixi bilan shug'ullanuvchilarni shaxmatning birinchi vatani Hindiston ekanligidan dalolat beradi, degan fikrga olib keldi.

Faktlarni yaxshi o'rganish va taqqoslash – O'rta Osiyoniig Panjob va Kashmirga yaqin viloyatlarida, taxminan, IV–V asrlarda hind chaturangasining qandaydir formasi asosida bu o'yinning takomillashgan turi – shatrang paydo bo'ldi, degan xulosaga olib keladi. Shatrang takomillasha borib, donalarining soni jihatidan ham, bu donalarning taxtaga terilish tartibi jihatidai ham hozirgi shaxmat tusiga kiradi. Shox, rux va ot xuddi hozirgidek yuriladigan bo'lib qoladi; lekin farzin bilan diagonal bo'yicha faqat bir xonagagina yurilgan; fil diagonal bo'yicha bir xona tashlab, ikkinchisiga sakragan; piyodalar ikki xonaga surilmagan; rokirovka bo'lmagan. Shunday qilib, bu farqni nazarga olmaganida, shatrang hozirgi zamon shaxmatiga juda yaqin bo'lib qolgan. Shatrang o'yinida shaxsol bora-bora qo'llanilmaydigan bo'ldi, unda kurash raqib donalarining barchasini qirib tashlaguncha emas, balki shohni mot yoki pot qilguncha davom ettiriladigan bo'ldi [4].